



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2026-yil 29-yanvar, № 19 (9190)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON PREZIDENTI RASMIY TASHRIF BILAN TURKIYADA BO'LADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'anning taklifiga binoan 29-yanvar kuni rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo'ladi.

Tashrif dasturiga muvofiq, Anqara shahrida ikki davlat rahbarlari raisligida Strategik hamkorlik kengashining to'rtinchi yig'ilishini o'tkazish rejalashtirilgan.

Muzokaralarda O'zbekiston – Turkiya keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada kengaytirish masalalari diqqat markazida bo'ladi.

Siyosiy mulqotni rivojlantirish, tovar ayirboshlashni oshirish, ustuvor iqtisodiy tarmoqlarda kooperatsiya loyihalarini ilgari surish hamda transport jihatidan o'zaro bog'liqlikni

mustahkamlashga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, faol madaniy va gumanitar almashinuvlarni davom ettirish masalalari ham ko'rib chiqiladi. Xalqaro va mintaqaviy kun tartibining dolzarb jihatlarini yuzasidan fikr almashiladi.

Oliy darajadagi muzokaralar yakunida salmoqli hujjatlar to'plamini imzolash ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari, ikki mamlakat yetakchilari qator qo'shma tadbirlarda ishtirok etadilar.

O'za.

O'zbekiston – Turkiya:

STRATEGIK SHERIKLIK ISTIQBOLLARI

Turkiya – dunyoning eng yirik turkiy tili, o'zbek xalqiga qardosh, tildosh va dindosh mamlakat. 1991-yilda O'zbekiston o'zining davlat mustaqilligini e'lon qilganda Turkiya dunyoning qudratli davlatlari rayiga qarab o'tirmadi. Birinchi bo'lib mamlakatimiz mustaqilligini tan oldi va o'zining ittifoqchilarini ham shunday qilishga da'vat etdi. Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'anning taklifiga binoan ushbu mamlakatda rasmiy tashrif bilan bo'lishi munosabatlar rivojida muhim o'rinni tutadi. Tashrif doirasida Anqara shahrida ikki davlat rahbarlari raisligida Strategik hamkorlik kengashining to'rtinchi yig'ilishi o'tkazilishi ko'zda tutilgan.

Mushohada

Sammit kun tartibidan O'zbekiston – Turkiya keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash masalalari o'rinni olgan. Amaliy hamkorlikni kengaytirish, eng avvalo, tovar ayirboshlash hajmini oshirish, sanoat, "yashil" energetika, elektrotexnika, to'qimachilik, farmatsevtika tarmoqlari, qishloq xo'jaligi va boshqa yo'nalishlarda, jumladan, davlat-xususiy sheriklik dasturi doirasida kooperatsiya loyihalarini ilgari surishga alohida e'tibor qaratiladi.

Turkiya xalqaro maydonda, shubhasiz, katta obro' va nufuzga ega mamlakat. Bugungi kunda u nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda o'z so'ziga ega, strategik jihatdan muhim davlat sifatida namoyon bo'lmoqda. Sharq va G'arb, Osiyo va Yevropa chorrahasida joylashgan bu mamlakat o'zining iqtisodiy ko'rsatkichlari, harbiy salohiyati va diplomatik mahorati bilan xalqaro maydonda muvozanatlovchi kuch vazifasini bajarmoqda. Turkiya dunyoning eng yirik iqtisodiyotlaridan biri hisoblanadi va "G20" (Katta yigirmalik) a'zosi. Turkiya iqtisodiyoti nominal YAIM bo'yicha dunyoda taxminan 18 yoki 19-o'rinda, xarid qobiliyati pariteti bo'yicha esa 11-o'rinda turadi. Mamlakat YAIM hajmi 1 trillion dollardan oshgan bo'lib, bu uni jadal rivojlanayotgan bozorlar qatoriga qo'shadi.

Turkiya – yirik sanoat markazi. Mamlakat Yevropada tijoriy avtomobillar ishlab chiqarishda yetakchi o'rinni egallaydi. To'qimachilik, mashinasozlik, kimyo sanoati va maishiy texnika (masalan, "Beko", "Vestel" brendlari) eksporti iqtisodiyotning drayverlari hisoblanadi. Turkiya turizm sohasida jahonning kuchli beshligiga kiradi. Bu soha mamlakatga har yili o'nlab milliard dollar miqdorida valyuta oqimini ta'minlaydi. Turkiyaning bugungi dunyodagi nufuzini uning harbiy qudratisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. U NATOning eng yirik va muhim a'zolaridan biridir, tashkilotda qo'shin soni bo'yicha AQSHdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. So'nggi yillarda Turkiya harbiy texnika importidan voz kechib, o'z mahsulotlarini eksport qiluvchi davlatga aylandi. Ayniqsa, "Bayraktar" uchuvchisiz uchish apparatlari dunyo harbiy strategiyasini o'zgartirib yubordi. O'zbekiston Qurolli Kuchlarida ham ana shu nomdron bilan jihozlangan bo'linmalar paydo bo'lgani fikrimizning isbotidir. Turkiya o'z harbiy kemalari (masalan, "TCG Anadolu") dron tashuvchi kemasi, tanklari ("Altay") va raketa tizimlarini ishlab chiqarmoqda. Bu mamlakatga tashqi siyosatda mustaqil qarorlar qabul qilish imkonini beradi.



ZARQAYNARDA HAYOT QAYNAMOQDA

Poytaxtimizning eski shahar qismida joylashgan Zarqaynar ko'chasi bo'ylab borarkanmiz, bu yerda olib borilgan bunyodkorlik ishlardan keyin hudud qayta jonlanganday, ko'rkam tarovat kasb etgandek tasavvur uyg'otdi bizda. Chunki bor-yo'g'i bir necha yil muqaddam bu yerga tashrif buyurgan odam pastqam kulbalar, xarob imoratlar, paxsasi sho'r tortib to'kilib yotgan devorlar, cho'kib qolgan aftodahol masjidlarni ko'rib, g'amgin kayfiyatga tushib qolardi. Bugun esa ko'chada butunlay boshqacha manzaraga guvoh bo'lasiz, dilingiz yayraydi, ko'zingiz quvonadi. Beixtiyor "Zarqaynarda dil yayrar", degan misra keladi xayolga.

– Ilgari Xastimom majmuasi hujralaridan birida faoliyat ko'rsatar edik. Yaqinda bizga bu joy ajratildi, – deydi tadbirkor. – Bino ham tuman hokimligi ko'magida qurib berildi. Prezidentimizning Zarqaynar ko'chasiga tashrifi doirasida bizning do'konimizga kirishini, ochig'i, tasavvurimga ham keltirmagandim. Davlatimiz rahbari yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi, qanday muammolar borligi bilan qiziqdi. Bizga o'xshagan tadbirkorlarning qo'llab-quvvatlanishi jamiyatni rivojlantirishi haqida gapirdi. Men esa Prezidentimizga minnatdorlik bildirib, hozir poytaxtimizning 12 ta tumanida kashtachilik bilan shug'ullanayotgan 300 nafar shogirdim borligini, kelajakda ular sonini 500 nafarga yetkazishni niyat qilganimni aytdim.



Bizning reportaj

Aslida ham shunday. Ko'cha bo'ylab qaytadan sharqona uslubda tiklangan ikki qavatli uylarning tashqi ko'rinishi betakror. Ularning devorlarida qadim karvonlar, tuyalarni yetaklab ketayotgan savdogarlar bo'rtma shaklda aks etgan. Uylarning birinchi qavatida turli turizm va xizmat ko'rsatish maskanlari joylashgan bo'lsa, ikkinchi qavatida shu yerda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlar istiqomat qilishadi.

Garchi qish mavsumi bo'lsa-da, ko'cha turli davlatlardan kelgan sayyohlar bilan gavjum. Shu bilan birga, bu tarixiy qiyofa, milliy me'morchilik an'analari va hunarmandchilik ruhi tutashgan manzilni qiziqish bilan ko'zdan



kechirayotgan yurtdoshlarimiz ham kam emas.

Prezidentimizning o'tgan haftada bu yerga tashrifidan so'ng Zarqaynar ko'chasidagi yangi va shinam maskanlarda o'z faoliyatini boshlagan hunarmand hamda tadbirkorlarning

taassurotlari bilan qiziqdik. Biz kirgan do'kon sohibasi qariyb chorak asrlik tajribaga ega bo'lgan, qadimiy kashtachilik an'analari davom ettirayotgan, "NA_SYZANE" hunarmandchilik firmasi rahbari Nasiba Is'hoqova ekan.

Sayyor yig'ilish

ANIQ VAZIFALAR VA ULARNING IJRO MUDDATLARI BELGILAB OLINDI

Kecha Xorazm viloyatining Hazorasp tumani hokimligi binosida Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning sayyor majlisi bo'lib o'tdi.

Majlisda milliy va hududiy kengashlar hamda Yoshlar parlamenti a'zolari, xalq deputatlari Xorazm viloyati va tuman (shahar) Kengashlari deputatlari, viloyat hokimi, vazirlik va idoralar rahbarlari, shuningdek, jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Kun tartibi doirasida Xorazm viloyatida korrupsiyaga qarshi kurashish hamda kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish borasida olib borilayotgan ishlar holati muhokama qilindi.

So'zga chiqqanlar jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashishda tizimli, qat'iy va ochiq mexanizmlarni joriy etish zarurligiga e'tibor qaratdi.



Munosabat

XAVFSIZ MUHITNI SHAKLLANTIRISH MAS'ULIYATI

Inson qadrini ulug'lash bo'yicha jamiyatimizda yangicha qadriyat va an'analar shakllanmoqda. Aholining munosib hayot kechirishi, sha'ni va qadr-qimmatini ko'taradigan, himoyasini kafolatlaydigan hamda Vatanimiz taraqqiyotiga xizmat qiladigan konstitutsiyaviy islohotlar amalga oshirilayotir. Bu o'zgarishlarni esa odamlar o'z kundalik hayotida sezyapti, his etyapti.

Shu bilan birga, yurtimiz taqdiriga beparvo, huquqbuzarliklarga moyil, ayrim hollarda adashgan kimsalar ham borki, bunday shaxslar bilan murosa qilib bo'lmaydi. Chunki huquqbuzarlik holatlariga beparvo bo'lish, bunday salbiy holatlarni o'zibo'larchilikka tashlab qo'yish o'ta ayanchli oqibatlariga olib kelishini jahon tajribasidan ham ko'rish mumkin.

Zero, eng demokratik qonunlarni qabul qilish oson, ammo uni hayotga tatbiq etish, fuqarolarning huquqlarini ta'minlash, muhofazasi bilan shug'ullanish jiddiy mas'uliyat va mehnatni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan yondashganda,

huquqbuzarlik holatlari har qanday rivojlanishga jiddiy to'siq hisoblanadi.

Prezidentimiz raisligida Toshkent shahrida xavfsiz muhitni shakllantirish hamda jamoat xavfsizligini samarali ta'minlash bo'yicha namunaviy amaliyotni yaratish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida huquqbuzarliklarga samarali kurashish, ularning oldini olish, tegishli davlat organlari mas'uliyatini tubdan oshirish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berildi.



FAKT VA RAQAMLAR

Toshkent shahri, Buxoro, Farg'ona va Toshkent viloyatlarida 4 ta data-markaz, 2 ta superkompyuter va 15 ta oliygohda SUN'IY INTELEKT LABORATORIYASI faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Bu – tibbiyot, transport, qishloq xo'jaligi, geologiya, bank-moliya, jamoat xavfsizligi kabi muhim sohalarida

100 dan

ortiq sun'iy intellekt loyihalarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasidan.

2030
yilga
borib

IT xizmatlari eksportini

5 milliard
dollarga yetkazish bo'yicha
katta marra olingan.

Shu bois jahon bozorida raqobatbardoshlikni oshirish uchun Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi tashkil etildi, IT infratuzilmasiga investitsiya kiritish uchun qator imtiyozlar berildi.

2026
yilda

Deputatlar – hududlarda

AHOLI BILAN SAMARALI MULOQOTLAR

Shu kunlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari xalq bilan yaqindan muloqot qilish, aholi muammolarini oʻrganish, ularga ijobiy yechim topish maqsadida oʻz saylov okruglarida boʻlib, fuqarolar bilan samimiy suhbatlar oʻtkazilmoqda.

Uchrashuvlarda davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga yoʻllagan Murojaatnomasi hamda unda ilgari surilgan gʻoya va tashabbuslarning mazmuni haqida batafsil maʼlumot berilmoqda. Shuningdek, "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yoʻnalishlar boʻyicha islohotlar dasturlari va "Oʻzbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish boʻyicha davlat dasturi toʻgʻrisida"gi Farmon loyihasiining mohiyati keng jamoatchilikka yetkazilib, bu borada saylovchilarning takliflari va fikrlari oʻrganilmoqda.

Kelajakka daxldorlik hissi

Bugungi yoshlar siyosati yosh avlodning jamiyat hayotidagi faolligini oshirish, ularning siyosiy-huquqiy ongini yuksaltirish va davlat boshqaruvida ishtirok etishga qiziqishini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Natijada yigit-qizlar orasida siyosiy partiyalar, qonun ijodkorligi jarayonlariga nisbatan qiziqish tobora ortib bormoqda. Bu esa yoshlarning kelajakka daxldor qarorlar ishlab chiqishda faol pozitsiyani egallayotganidan dalolat beradi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Gulnora Abduvohidova ishtirokida Andijon davlat universitetida "Deputat va yoshlar" loyihasi doirasida tashkil etilgan maʼnaviy-maʼrifiy tadbirida shu jihatlar oʻz ifodasini topdi. Uchrashuv talabalar uchun siyosiy jarayonlarni chuqurroq anglash, qonunchilik faoliyati bilan bevosita tanishish hamda deputat bilan ochiq muloqot qilish imkonini berdi.

Deputat Prezidentimizning bu galgi Murojaatnomasining avvalgilariiga nisbatan farqli jihatlar, unda ilgari surilgan yangi gʻoyalar va aniq vazifalar haqida soʻz yuritib, ayniqsa, yoshlar uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlarga alohida eʼtibor qaratdi.

– Uchrashuv talabalarimizda siyosiy jarayonlarga nisbatan chinakam qiziqish uygʻotdi, – deydi huquqshunos Moʻtabar Sodiqova. – Nazariy bilimlar amaliyot bilan uygʻunlashdi, deputat bilan muloqot jarayonida ular yanada mustahkamlandi. Yaratilayotgan shart-sharoitlar talabalarni izlanishga undayotgani, yangi marralar sari boshlayotgani, ayniqsa, ilm-fan, innovatsiya va tadbirkorlik yoʻnalishlarida erishilayotgan yutuqlar alohida qayd etildi.

Uchrashuvda talabalarni qiziqitrgan savollarga deputat tomonidan atroficha javoblar berildi.

Tadbir doirasida Oliy Majlis Qonunchilik palatasining faoliyati, qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish jarayonlari, deputatning saylovchilar bilan ishlash amaliyoti xususida ham atroficha maʼlumotlar berildi. Bu esa yoshlarda qonunchilik tizimiga nisbatan ishonch va qiziqishni yanada oshirdi.

Zarur tibbiy xizmat koʻrsatiladi

Qonunchilik palatasi deputati Tohir Polvonovning Xorazm viloyatining Yangiariq tumanidagi saylovchilar bilan uchrashuvlari koʻtarinki ruhda oʻtmoqda.

Deputat dastlab Yangiariq mahallasi faoliyati bilan yaqindan tanishib, infratuzilma holati, aholi murojaatlari va hududdagi dolzarb ijtimoiy masalalarni oʻrgandi.

Shuningdek, hudud aholisi vakillari bilan muloqot qilib, ularni oʻylantirib kelayotgan masalalarni tingladi va mutasaddilar bilan birgalikda hal etish choralarini koʻrdi.

Mazkur uchrashuvlar chogʻida deputat tumandagi "Azza med" xususiy klinikasida ham boʻlib, muassasada tibbiy xizmat sifati, zamonaviy uskunalaridan foydalanish, bemorlarni qabul qilish jarayonlari va xodimlar faoliyatini oʻrgandi.

Xalq vakili shu kuni Yangiobod mahallasida yashovchi Parizoda Yusupova xonadonida ham boʻlib, bemorning kasalligini aniqlash maqsadida MRT koʻrigidan oʻtishi belgilandi va buning uchun zarur yordamlar koʻrsatiladigan boʻldi.

Deputatning saylovchilar bilan uchrashuvlari davom etmoqda.

Markaz faoliyati bilan tanishuv

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Shuhrat Yoqubovning hududlardagi uchrashuvlari Jizzax viloyatining Mirzachol tumanida joylashgan Ezgu niyat maydonidan boshlandi.

Mazkur maydon bugungi kunda tumanning eng koʻrkam va zamonaviy maskanlaridan biriga aylangan. Aholi uchun qulay va shinam muhit yaratish yoʻlida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari ushbu maydon timsilda yaqqol namoyon boʻlmoqda.

Xalq vakili maydon hududida amalga oshirilgan obodonlashtirish ishlari, infratuzilma va fuqarolar uchun yaratilgan qulay sharoitlar bilan yaqindan tanishdi. Bu, oʻz navbatida, tajriba almashish, kelgusida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan yangi tashabbus va loyihalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Deputatning navbatdagi manzili – Mirzachol tumanidagi "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi boʻldi. Xalq vakili bu yerda markaz faoliyati bilan yaqindan tanishdi.

Uchrashuvda markaz tomonidan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga koʻrsatilayotgan manzilli va professional xizmatlar yuzasidan masʼullarning axboroti tinglandi.

Kam taʼminlangan oilalar, nogironligi boʻlgan shaxslar, yolgʻiz keksalar, bolalar hamda tazyiq va zoʻravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar doimiy eʼtiborda ekani urgʻulandi. Shuningdek, ijtimoiy xodimlar tomonidan mahallalarda olib borilayotgan ishlar, reabilitatsiya, bandlikni taʼminlash, moddiy va psixologik yordam koʻrsatish yoʻnalishidagi faoliyat haqida maʼlumot berildi. Markaz huzuridagi bepul psixologik xizmatning ahamiyati alohida qayd etildi.

Muloqot davomida deputat tomonidan ijtimoiy xizmatlar sifatiini yanada oshirish boʻyicha tegishli taklif va tavsiyalar berildi.

“Xalq soʻzi”.

IJTIMOIIY BARQARORLIK VA IQTISODIIY RIVOJILANISH HOLATI KOʻZDAN KECHIRILDI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi ishchi guruh Xorazm viloyatiga tashrfi doirasida ijtimoiy-iqtisodiy holat, xavfsizlik va aholiga yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Oʻrganish

Dastlab Urganch tumanida yaqinda ishga tushirilgan va sut mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashtirilgan "Tilla Damar" xususiy korxonasi faoliyati oʻrganildi. Ushbu korxonada 100 ta ish oʻrni yaratilgan boʻlib, 50 xildan ziyod sut mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Loyihaning umumiy qiymati 6 mln. AQSH dollarini, eksport hajmi esa 2,5 mln. dollari tashkil etadi.

Ishchi guruh Urganch shahar hokimligi binosida joylashgan Yagona axborot-tahliliy va monitoring (situatsion) markazida ham boʻldi. Bu yerda shahar hayoti bilan bogʻliq jarayonlar real vaqt rejimida kuzatilib, favqulodda vaziyatlar, jamoat

xavfsizligi va kommunal tizimlar holati tahlil qilinadi. Shuningdek, "Urganch – aqlii shahar" loyihasining joriy etilishi, sunʼiy intellekt imkoniyatlaridan foydalangan holda profilaktik tadbirlarni tashkil qilish hamda jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan amaliy loyihalar ham taqdim etildi.

Senat Raisi boshchiligidagi ishchi guruh xalq deputatlari Urganch shahar Kengashi faoliyati bilan ham tanishdi. Bu yerda deputatlar faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgani, aholi murojaatlari bilan ishlash tizimi takomillashtirilgani hamda ochiqlik va jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga qaratilgan samarali mexanizmlar joriy etilgani eʼtirof etildi.

Oliy Majlis Senati
Axborot xizmati.

Aks sado

ISHGA YANGICHA YONDASHUV – TINCHLIK VA XOTIRJAMLIK KAFOLATI

Prezidentimiz raisligida 27-yanvar kuni boʻlib oʻtgan videoselektor yigʻilishida huquq-tartibot tizimida yigʻilib qolgan muammolar ochiq, qatʼiy va prinsipial tarzda koʻrsatib berildi. Ayniqsa, Toshkent shahri misolida jamoat xavfsizligini taʼminlash, uyushgan jinoyatchilik, narkotrafik, kiberjinoyatlar va "yashirin iqtisodiyot"ga qarshi kurashda tizimli yondashuv yetishmayotgani tanqid qilindi.

Ichki ishlar tizimida koʻp yillar xizmat oʻtagan mutaxassis sifatida aytishim mumkinki, davlat rahbari koʻtargan masalalar sohani ichidan bilgan, haqiqiy holatni koʻrib turgan insonning gapidir. Chunki poytaxtda resurs, kuch va salohiyat yetarli boʻla turib haligacha eski ish uslubi va qoliplardan chiqilmayotgani – rahbarlarning shaxsiy javobgarligi va talabchanligi masalasiga koʻp narsa bogʻliq ekanini ochiq koʻrsatib turibdi. Aniq raqamlar bilan keltirilgan misollar: tergov va surishtiruv sifati pastligi, hisobot ortidan quvish, profilaktika inspektorlarining asl vazifasidan chalgʻitilishi, mahallada ularning "koʻrinmas" boʻlib qolishi – bu tizimni tubdan yangilash vaqti kelganiini anglatadi. "Jinoyatchilikni kamaytirdik" degan hisobotlar ortida "qizil" va "sariq" mahallalarning



saqlanib qolayotgani esa real natija bilan qogʻozdagi raqamlar oʻrtasidagi tafovutni yaqqol koʻrsatadi. Narkojinoyatchilik, uyushgan guruhlar va kiberjinoyatlar boʻyicha bildirilgan tanqidlar, ayniqsa, oʻrinli. Narkokanallarning oxirgi manbasi va moliyaviy homiylarigacha yetib borishda qatʼiyat yoʻqligi qonun ustuvor va jazo muqarrar emasligi sabab takroriy jinoyatlar keskin oshgani – jamiyat xavfsizligi uchun

XAVFSIZ MUHITNI SHAKLLANTIRISH MASʼULIYATI

Albatta, ushbu masalaga bu darajada katta eʼtibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki soʻnggi yillarda ayrim fuqarolar, ayniqsa, yoshlar oʻrtasida huquqbuzarlik holatlarining tez-tez uchrayotgani keng jamoatchilik xavotiriga sabab boʻlmoqda. Masalan, oʻtgan yili poytaxtda kiberjinoyatlar soni 16 mingdan ortib, fuqarolar qariyb 2 trln. soʻm moddiy zarar koʻrgan boʻlsa, ularni fosh etish 8 foizga ham bormagan. Bundan tashqari, poytaxtimizda narkojinoyatlarining soni 4 mingdan oshgan. Hibsga olingan 112 ta uyushgan jinoyi guruh 1 300 dan ortiq jinoyatlarga qoʻl urgan. Aybli deb topilib qamalganlar jazoning yarmini ham oʻtamasdan ozodlikka chiqmoqda. Oqibatda bu jinoyatni takroran qilganlar uch yilda 125 foizga koʻpaygan.

Yigʻilishda huquqbuzarliklarning oldini olishda yoʻl qoʻyilgan kamchiliklar koʻrsatilib, ularni bartaraf

etish boʻyicha mutlaqo yangi tizim yaratish, xavfsiz muhitga asos solish yuzasidan "poytaxt namunasini" joriy etish borasida mutasaddi rahbarlarga aniq yoʻnalish va vazifalar belgilab berildi.

Har qanday huquqbuzarlikning oldini olishda mahalla profilaktikasi imkoniyatlaridan samarali foydalanish gʻoyatda muhim. Boisi har bir inson mahallada istiqomat qiladi, oʻzini oʻsha kichik jamiyat vakili sifatida his etadi. Biroq mahallada huquqbuzarlikka moyil boʻlganlarni aniqlab, ularni toʻgʻri yoʻlga solmaslik, ishlarni samarali tashkillashtirmaslik huquqbuzarliklarning koʻpayishiga sabab boʻladi.

Afsuski, mahallada sodir boʻlayotgan har bir huquqbuzarlik insonlar taqdiriga moddiy va maʼnaviy jihatdan salbiy taʼsir koʻrsatib, fuqarolarni yanada koʻproq oʻz domiga tortishi mumkin. Shu sababli huquqni muhofaza qilish tuzilmalari faoliyatini samarali tashkil



etish bilan birga har bir fuqaroning masʼulligini ham kuchaytirish lozim boʻladi. Bu jarayonda deputatlar, mahalla faollari va boshqa fuqarolik jamiyat institutlari faol qatnashishi kerak. Mahalla yoki jamiyatning qaysi nuqtasida boʻlmasin huquqbuzarlik holatiga duch kelsak, uni toʻxtatish, uning oldini olishda faollik koʻrsatishimiz zarur. Binobarin, huquqbuzarliklarga qarshi kurashish tor doiradagi davlat organlarininggina ishi emas, balki butun jamiyat zimmasidagi jiddiy masʼuliyat hamdir. Videoselektorda huquqbuzarliklar

ANIIQ VAZIFALAR VA ULARNING IIRO MUDDATLARI BELGILAB OLINDI

Majlisda taʼkidlandiki, soʻnggi ikki yilda viloyatda 300 dan ortiq shaxslar korruptsiyaviy jinoyatlarga qoʻl urgani aniqlangan. Ayniqsa, energetika, qurilish, taʼlim, sogʻliqni saqlash hamda imtiyozli kreditlar ajratish sohalarida korruptsiya xavfi yuqoriligi tanqid ostiga olindi.

Energetika sohasida suyultirilgan gaz va elektr taʼminoti bilan bogʻliq talon-toraj holatlari, inson omilining yuqoriligi, nazorat mexanizmlarining yetarli darajada raqamlashtirilmagani koʻrsatib oʻtildi. Qurilish sohasida esa ruxsatnoma berish jarayonlarida shaffoflik yetishmasligi, asossiz rad javob berilishi va manfaatlar toʻqnashuvi holatlari aniqlangan.

Shuningdek, imtiyozli kreditlar ajratish tizimida hokim yordamchilari va taʼminotchi korxonalar oʻrtasidagi

suiisteʼmolliklar, marketpleys platformasida noqonuniy naqdlashtirish, soliqlardan qochish bilan bogʻliq jiddiy kamchiliklarga yoʻl qoʻyilgani aytilidi.

Majlis yakunida sohalar kesimida aniq vazifalar hamda ularni ijro etuvchi mutasaddilar va muddatlar belgilab olindi. Energetika va qurilish sohalaridagi jarayonlarni toʻliq raqamlashtirish, inson omilini qisqartirish, komplayens nazoratni kuchaytirish, imtiyozli kreditlar ajratishda shaffof va avtomatlashtirilgan mexanizmlarni joriy etish ishlarini kechiktirmay amalga oshirishga kelishib olindi.

Qabul qilingan qaror ijrosi Korruptsiyaga qarshi kurashish boʻyicha milliy kengash va hududiy kengashlar tomonidan doimiy nazoratga olinishi belgilandi.

Senator va hayot

Murojaatda tilga olingan muammo oʻz yechimini topdi

Inson qadri va huquqlari ustuvor boʻlgan rivojlangan demokratik jamiyatni barpo etish uchun, avvalo, davlat va hukumat organlari xalqqa xizmat qilishi zarur degan dasturilamal shior butun mamlakatimiz boʻylab – shaharlardan tortib chekka qishloqlargacha amalda.

Oliy Majlis Senati aʼzosi, Oʻzbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidga Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanidagi "Turmushobod" va "Galabuta" mahalla fuqarolar yigʻinlari aholisi tomonidan mazkur hududlarda bolalar uchun piyodalar yurish yoʻlagini qurish borasida amaliy koʻmak soʻrab yozma murojaat kelib tushgan edi.

Kuni kecha ushbu murojaat doirasida mavjud masalani oʻrganish uchun xalq deputatlari Denov tumani Kengashi deputati Islom Xudoyberdiyev va Sariosiyo tumani hokimi oʻrinbosari Mamasodiq Ochilidiev mazkur hududda yashaydigan aholi bilan uchrashuv oʻtkazdi.

Sariosiyo tumanidagi 45-umumtaʼlim maktabida boʻlib oʻtgan yigʻilishda murojaatda koʻtarilgan masalaning dolzarbligi xususida soʻz bordi. Tadbirida soʻzga chiqqan Oʻzbekiston mahallalar uyushmasi tuman boʻlimi hamda "Turmushobod" va "Galabuta" MFY vakillari bugun yurtimizda roʻy berayotgan yangilanishlarga, muhim ijtimoiy-iqtisodiy hamda maʼnaviy yoʻnalishda olib borilayotgan islohotlarga oʻz munosabatlarini bildirib, mamlakat miqyosida roʻy berayotgan ushbu bunyodkorlik jarayonlariga tuman va mahallalar aholisi ham oʻz hissasini qoʻshishi zarurligini alohida taʼkidladi.

Tadbir yakunida mutasaddi idoralar vakillari aholi murojaatida koʻzda tutilgan masalaning ijrosi yaqin kunlarda toʻliq taʼminlanishini maʼlum qildi.

“Xalq soʻzi”.

MEHNAT BOZORIDA YOSHLARGA QANDAY QULAYLIKLAR YARATADI?

Prezidentimizning Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga Murojaatnomasida kasblarni rivojlantirish va mehnat bozorini yangicha asosda tashkil etish masalasi alohida yoʻnalish sifatida belgilandi. Bu masala, avvalo, yoshlarning taʼlim olishi, ish topishi va mehnat bozoriga moslashuvi bilan chambarchas bogʻliq.

Fikr

Bugungi global jarayonlar shuni koʻrsatmoqdaki, texnologik taraqqiyot ish oʻrinlarining nafaqat soniga, balki mazmuniga ham jiddiy taʼsir koʻrsatmoqda. Avtomatlashtirish va sunʼiy intellekt ayrim kasblarni qisqartirmoqda, ayni paytda yangi malaka va kasblarga ehtiyojni ham kuchaytirmoqda. Bu holat yoshlar oldiga aniq talab qoʻymqda: endi faqat diplom emas, ayni paytda bozor talab qilayotgan real koʻnikmalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan,

Murojaatnomada mehnat bozorini kasb, malaka, texnologiya va taʼlimni bogʻlovchi yagona tizim sifatida qayta tashkil qilish zarurligi taʼkidlandi. Bu yondashuvning asosiy maqsadi yoshlar taʼlim olgandan soʻng mehnat bozorida moslashuvsiz qolib ketmasligini taʼminlashdir. Amaliyotda esa bu taʼlim muassasalari bilan ish beruvchilar oʻrtasidagi uzviy aloqani kuchaytirishni taqozo etadi.

Kasb tanlash masalasiga erta bosqichda eʼtibor qaratilishi bejiz emas. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, oʻquvchilarda kasbiy qiziqish oʻrta sinflarda shakllana boshlaydi. Shu



sababli, 9-sinf bitiruvchilarini fanlarni oʻzlashtirishi va kasbiy qiziqishiga qarab saralab olish tizimi joriy etilmqda. Bu qaror oliy taʼlim va kasbiy taʼlim oʻrtasida muvozanatni saqlash, shuningdek, mehnat bozorida nomutanositibliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Texnikumlarning faoliyatiga berilayotgan eʼtibor ham aynan shu muammoni hal etishga qaratilgan.

Hududlarda Ilgʻor kasbiy mahorat

Oʻzbekiston – Turkiya:

STRATEGIK SHERIKLIK ISTIQBOLLARI



Turkiyaning geografik joylashuvi unga Bosfor va Dardanell boʻgʻozlari ustidan nazoratni amalga oshirishdek noyob geosiyosiy ustunlik beradi. Turkiya Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT)ning asoschisi va faol aʼzosi sifatida Markaziy Osiyo va Ozarbayon bilan aloqalarni strategik darajaga olib chiqdi. U jon boshiga toʻgʻri keladigan gumanitar yordam miqdori boʻyicha dunyoda eng oldingi qatorlarda turadi. Turkiya moliyaviy tizimi murakkab global sharoitlarga qaramay, moslashuvchanligini koʻrsatmoqda. Mamlakatda bank tizimi yuqori darajada raqamlashgan va mustahkam. Markaziy bank va hukumat eksportha yoʻnaltirilgan iqtisodiy modelni qoʻllab-quvvatlamogʻda, bu esa ishlab chiqarish hamda ish oʻrinlarini koʻpaytirishga xizmat qilyapti.

Zamonaviy Turkiya – bu nafaqat boy tarixga ega davlat, balki kelajakni belgilovchi global “oʻyinchi”dir. Qudratli armiya, jadal rivojlanayotgan iqtisodiyot va faol tashqi siyosat Turkiyani jahon siyosiy sahnasidagi hal qiluvchi kuchlardan biriga aylantirdi. Shu jihatdan, Oʻzbekiston uchun bunday davlat bilan strategik sheriklik har

tomonlama manfaatlari va istiqbollari.

Turkiyaning bugungi barcha yutuqlarida va erishayotgan ulkan marralarida mamlakat yetakchisi Rejep Tayyip Erdogʻanning xizmati katta ekanligini alohida eʼtirof etish joiz. Aynan Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdogʻanning 2016-yilda Samarqandga tashrifidan keyin mamlakatlarimiz oʻrtasidagi munosabatlarda yangi bosqich boshlandi. Bunga ikkala davlat rahbarlarining 2016 – 2025-yillar ichida rasmiy va boshqa xalqaro platformalarda norasmiy ravishda yigirmadan ziyod uchrashuvlar oʻtkazgani muhim hissa boʻlib qoʻshildi.

Umumiy tarix va madaniy merosga ega boʻlgan ikkala mamlakat rahbarlarining oʻzaro muloqotlari, turk dunyosi bilan munosabatlarni yaxshilashga intilishi hamkorlikni kuchaytiruvchi omil boʻlmoqda. Bugungi kunda mamlakatlarimiz oʻrtasidagi munosabatlar strategik sheriklik darajasiga koʻtarildi. Faol diplomatik aloqalarning asl sababini esa bu ikki yetakchining oʻzaro hamkorlikni jadallashtirishga boʻlgan jiddiy istagi deb taʼriflasak toʻgʻri boʻladi. Qolaversa, Prezident Shavkat Mirziyoyev faol va har tarafлама ochiq tashqi siyosat

yuritib kelayotgani muloqot maydonini yanada kengaytirdi.

Oʻzbekiston va Turkiya Birlashgan Millatlar Tashkiloti hamda Islom hamkorlik tashkiloti kabi xalqaro muloqot platformalarida bir-birini har doim qoʻllab-quvvatlab keladi, dunyoda tinchlik, hamkorlik va rivojlanish tarafdori boʻlish borasida doim hamfikrdir. Ikki davlat rahbarlari rivojlanib borayotgan bu hamkorlik natijasi butun turkiy davlatlar dunyosini ham qamrab oladigan darajada yuksalishi zarurligini yaxshi tushunadi. Bu borada Oʻzbekistonning 2019-yilda Turkiy davlatlar tashkilotiga aʼzo boʻlib kirishining ahamiyati ham katta boʻldi. Hatto Oʻzbekistondan keyin Turkmaniston ham bu tuzilmaga kuzatuvchi boʻlib kirish

boʻlib oʻtgan Turkiya – Oʻzbekiston qoʻshma strategik rejalashtirish guruhining toʻrtinchi yigʻilishi va “4+4” mexanizmi doirasidagi uchrashuvlarda bu intilish oʻzining amaliy ifodasini topdi. Anqaradagi uchrashuvning tarkibi (tashqi ishlar, mudofaa, ichki ishlar, maxsus xizmatlar rahbarlari) xalqaro diplomatiyada juda kam kuzatiladigan holat boʻlib, bu oʻrtadagi toʻliq ishonch belgisidir. Turkiya ham NATO aʼzosi, ham texnologik jihatdan rivojlangan mudofaa sanoatiga hamda Oʻzbekiston bilan madaniy-tarixiy yaqinlikka ega. Bu uchrashuv Oʻzbekistonning xavfsizlik sohasidagi hamkorlarini diversifikatsiya qilayotganini koʻrsatadi. Toshkent faqatgina bitta kuch markaziga bogʻlanib qolmoqchi emas, Turkiya bilan harbiy va xavfsizlik

“Oʻzbekiston va Turkiya Birlashgan Millatlar Tashkiloti hamda Islom hamkorlik tashkiloti kabi xalqaro muloqot platformalarida bir-birini har doim qoʻllab-quvvatlashi, dunyoda tinchlik, hamkorlik va rivojlanish tarafdori boʻlish borasida doim hamfikrdir. Ikki davlat rahbarlari rivojlanib borayotgan bu hamkorlik natijasi butun turkiy davlatlar dunyosini ham qamrab oladigan darajada yuksalishi zarurligini yaxshi tushunadi.

istagini bildirdi. Shu va shunga oʻxshash hamkorliklarda oʻzaro birga ish yuritish ikkala davlat uchun juda muhimdir. Zero, bunday tashkilotlar faqatgina siyosiy mavzular bilan mashgʻul boʻlib qolmasdan, koʻproq madaniy meros va oʻzaro hamkorlikka jiddiy eʼtibor qaratayotgani eʼtiborga molik.

Ikki davlat rahbarlarining barcha uchrashuvlarida eng muhim mavzu iqtisodiy sohadagi hamkorlikni rivojlantirish boʻlib kelayotgani ham alohida ahamiyatga ega. Bular qatoriga keyingi yillarda harbiy va xavfsizlik borasidagi hamkorlik ham qoʻshildi. Shu yil 20-yanvar kuni Anqarada

sohasidagi yaqinlashuv Oʻzbekiston armiyasining modernizatsiyasini tezlashtiradi.

2017-2018-yillar oraliqʻida imzolangan hamkorlik borasidagi kelishuvlardan eng muhimi – Oʻzbekiston 2019-yilning 10-fevralidan boshlab bir tomonlama toʻxtatib qoʻyilgan Turkiya fuqarolariga beriladigan 30 kunlik viza tartibini yana qayta tikladi. Oʻzbekistonning bu harakati ikki tomonlama ishonchni yanada mustahkamladi. Oʻzbek va turk aviakompaniyalarining Samarqand, Buxoro, Namangan, Fargʻona va Anqara – Toshkent qatnovlari yoʻlga qoʻyilishi jiddiy

ZARQAYNARDA
HAYOT QAYNAMOQDA

...Tadbirkorlar tomonidan olib kelinayotgan hunarmandchilik mahsulotlarini shu koʻchadagi doʻkonga tushirishga bosh-qosh boʻlayotgan yigit “Abubakir Shoshiy” mahalla fuqarolar yigʻinida hokim yordamchisi Oybek Sadriddinov ekan.

– Zarqaynar koʻchasida turizm va xizmat koʻrsatish maskanlarining ochilishi biz uchun katta voqeʻlik boʻldi, – deydi Oybek. – Shuning uchun qoʻshni mahalladan boʻlsak ham, qoʻl qovushtirib oʻtirishni oʻzimizga ep koʻrmadik. Chunki mana shunday turizm obyektlari ertaga eski shaharning boshqa koʻchalarida ham qad rostlaydi. Tadbirkorlarga qoʻlimizdan kelgancha qarashypmiz, ularning bemalol faoliyat yuritishi uchun imkoniyat yaratypmiz. Prezidentimiz tashrif chogʻida faoliyatimni qoʻllab-quvvatlab, yanada gʻayrat bilan ishni davom ettirishimni tayinladi. Shundan buyon yanada baland ruh, koʻtarinki kayfiyat bilan ishlayapman.

– Men zargarlik buyumlari yasash bilan shugʻullanaman, – deya toʻqilinib soʻzlaydi yana bir tadbirkor Xurshida Poʻlatova. – Turmush oʻrtogʻim il guruh nogironi, ikki nafar oʻgʻlimiz bor. Rosti, ilgari ahvolimiz juda xarob, yashayotgan imoratimiz shoʻrlanib, toʻkilib qolgan edi. Olmazor tumani hokimligi vakillari kelib, “Uyjingizni qaytadan qurib, tadbirkorlik qilishingiz uchun barcha sharoitlarni yaratib beramiz” deyishganida, toʻgʻrisi, ishonmagin edim. Bunaqa voqealar faqat tushda yoki ertalarda boʻladi, deb oʻylardim. Yoʻq, barchasi koʻz oʻngimizda sodir boʻldi. Mana shunday muhtasham uyni qurib berishdi,

baraka topkurlar. Juda xursandman, minnatdorman. Zargarlik mahsulotlarini yasash uchun xomashyo olib kelishimga ham yordamlashishyapti, ikki farzandimni ishga joylab qoʻyishdi. Ahvolimiz oʻnglanib ketdi.

– Prezident Shavkat Mirziyoyev bilan uchrashuvim kutilmaganda yuz berdi, – deydi 70 yoshni qoralab qolgan otaxon Abdulatif Shahobov. – Prezidentimiz koʻchadan oʻtib ketayotganlarida uyimiz roʻparasida toʻxtab, mendan hol-ahvol soʻradilar. Olmazor tumani hokimligi koʻmagida toʻrtta tadbirkorlik doʻkoni tashkil qilganimni, ularning uchtasini ijaraga berib, bittasida oʻzim ish yuritmoqchi ekanimni aytdim. Davlatimiz rahbari ishlarimga baror tilab: “Bu yerda mening koʻzim ham, qulogʻim ham sizziz. Xayrli ishlardan sarkador qilib turasiz. Yoshlarga xabaror qilib turasiz. Yoshlarga xabaror qilib turasiz. Yoshlarga xabaror qilib turasiz. Yoshlarga xabaror qilib turasiz.

Tadbirkor Elнора Rizayeva esa Zarqaynar koʻchasining 48-manzilida tashlandiq boʻlib yotgan eski choyxonaning roʻkam qiyofa kasb etishiga bosh-qosh boʻlgan. U bu yerda “Zanmakon” ijtimoiy kompleksi bunyod etib, xotin-qizlarni hunarmandchilikka, tadbirkorlikka jalb qilish, ular uchun turli yoʻnalishlarda oʻquv kurslarini tashkil qilish ishlari bilan shugʻullanadi. Biz ushbu maskanda turizm va xizmat koʻrsatish obyektlari faoliyatini yoʻlga qoʻyishga jalb etilgan Olmazor tumani hokimining matbuot kotibi Vitaliy Tolibjonov

bilan tanishdik. – Prezidentimiz Zarqaynar koʻchasiga tashrif buyurganida bitta gapni taʼkidladi. Albatta, sayyohlar uchun yaxshi sharoit yaratish kerak. Buning uchun esa malakali kadrlar tayyorlash zarurati bor. Va bu borada hunarmandlar



Respublika byudjetidan ajratilgan 150 milliard soʻm hisobiga ushbu koʻchadagi 576 ta xonadon milliy koʻrinishda taʼmirlandi. 100 nafar tadbirkor tomonidan 166 mlrd. soʻm investitsiya kiritildi. Hozir bu yerda 7 ta

universitetini tashkil etish masalasi kun tartibiga qoʻyildi. Bu juda toʻgʻri yechim deb oʻylayman, – deydi Vitaliy. Kelajakda Olmazor tumanida 15 ta mahallani oʻzaro bogʻlovchi tuman ahamiyatidagi oltita koʻchada turizm va xizmat koʻrsatish obyektlari barpo etiladi. Keksa otaxonlarning aytishicha, oʻtgan asrning boshlarida Zarqaynar koʻchasi to Xastimom masjid-madrasalariga qadar savdo va hunarmandchilik rastalari bilan toʻlib-toshgan. “Zarqaynar” soʻzi ham shundan kelib chiqqan. Hududda hayot qaynagan, xorijdan kelgan karvonlar savdo-

Xullas, Zarqaynar koʻchasida asrlar davomida shakllangan milliy meʼmorchilik anʼanalari va hunarmandchilik faoliyati qayta tiklangani ishbilarmon hamda tadbirkorlarga, umuman, mahalla ahliga quvonch bagʻishladi.

Kelajakda “Olmazor” innovatsion oʻsish hududini rivojlantirish boʻyicha ishlab chiqilgan master-rejaga asosan ushbu hududda taʼlim-innovatsiya, turizm va savdo, madaniy meros, biznes hamda IT xizmatlarini qamrab olgan “rivojlanish koridorlari” tashkil etiladi. Eski shahar atrofida Talabalar shaharchasi, universitet va texnoparklar, sogʻliqni saqlash obyektlari, shuningdek, Oʻzbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Hazrati Imom majmuasi, Chorsu va tarixiy shahar markazini oʻz ichiga olgan turizm yoʻnalishlari oʻzaro uygʻunlikda shakllantiriladi. Hozircha esa Zarqaynarda hayot qaynayapti, uni koʻrganlarning dili yayrayapti. Xayrli ishlar davom etmoqda.

Nurulloh OSTONOV
 (“Xalq soʻzi”).

EL TASHVISHI
ELAKDAN OʻTKAZADI

Musurmon Togʻayev – 68 yoshda, men bilan tengqur. Men yashaydigan Zarbdor tumanidagi Navroʻz mahallasi raisi. Bu lavozimga uch oycha avval qayta tayinlandi. Uzoq yillar ayni lavozimda ishlagandan soʻng besh yil burun: “Boʻldi endi, pensiyaga chiqdimmi, dam olaman”, deya ariza berib ishdan ketgan, oʻrniga muovini, 40 yoshlardagi Muzaffarni taklif qilgan edi. Muzaffar bir chaqirigʻi, yaʼni besh yil ishlagi. Ammo oʻtgan yilgi saylovda oʻz nomzodini raislikka qayta qoʻymadi. “Charchadim, ketaman”, dedi. Va ketdi, ketganda ham Rossiyaga joʻnab yubordi. Muqobil saylovda yana bir qirgʻ yoshli yigit, Xayrulla saylandi. U bor-yoʻgʻi toʻrt oy ishladi va oʻz ixtiyori bilan ariza berib ketdi – chidamadi. Raislikning qiyinchiliklarga, “yuk”iga dosh berolmadi. Aytishlaricha, rais boʻlganida toʻxtatib qoʻygan biznesini yana yuritayotgan emish. Raislik mutlaqo charchatib yubordi, deganmish.

Mulohaza

Eʼtibor qilyapsizmi, ikkita rais oʻz ixtiyori bilan isteʼfo bergan.

Xoʻsh, nega? Musurmon Togʻayev bilan suhbatimiz shu haqda.

Uning aytishicha, haqiqatan ham, mahallada “yettilik” bor, ammo barcha “yuk” raisning boʻynida. Hokim yordamchisi oylik maoshini hokimiyatdan oladi. Mahallada oʻtirsada, oʻz tashvishlari bilan band. Raisga boʻysunmaydi. “Menda hokimning topshiriqlari yetarli”, deydi-da, raisning topshirigʻini tal olmaydi. Lekin bu yordamchi deganimiz hokimning ham topshiriqlarini bajarmaydi. “Men mahalla tashvishi bilan bandman”, degan vajni roʻkach qiladi. Aynan shu sababli keyingi bir yil davomida mahallada hokim yordamchisi lavozimida faoliyat yuritgan ikki xodim ishdan boʻshatildi. Hozir bu lavozim vakant. Emishki, hokim yordamchisining vazifasi mahallaning koʻmakka muhtoj qatlamiga banklardan kredit olishi uchun tavsiiyanoma berishdan iborat. Ammo... Har qanday bank kredit chiqarayotganda uning qaytarilish yoʻllarini oʻrganadi va kredit olmoqchi boʻlgan odamning oʻzi bilan gaplashadi, imkoniyatlariga qiziqadi. Xullas, bu oʻrinda bankka hokim yordamchisining “garantiya”si zarur emas.

Yoshlar ishlari boʻyicha masʼul shaxs oylik maoshini oʻz “liniyasi” boʻyicha oladi. U ham mahalla raisi bilan koʻpam hisoblashavermaydi.

Ijtimoiy himoya tashkiloti vakili, xotin-qizlar masalalari boʻyicha vakila ham shu tarzda ishlaydi. Raisga koʻpam boʻysunavermaydi. Soliqchi mahallaga mutlaqo

kelmay qoʻygan. Oʻzining ishlari koʻp emish. Qolaversa, uch-toʻrt mahallaga bitta soliqchi. Uni doimiy mahalla idorasida oʻtirasan, deyish ham nooʻrin boʻlsa kerak.

Xullas, shunaqa gaplar...

Mahallaga keladigan topshiriqlar, bajarilishi zarur boʻlgan ishlar odatda raisga beriladi. Oʻz navbatida, rais topshiriqlarni xodimlari orasida taqsimlashi talab etiladi. Holbuki, xodimlar bilan raisning munosabati mana bunaqa... Shu sababli, barcha ogʻirlik faqat raisning yelkasiga tushaveradi. Buning zalvariga uncha-muncha yoshlar chidamayapti. Koʻryapsizmi, “Navroʻz” MFYda keyingi bir yil davomida uchinchi marta rais yangilandi.

Musurmonning suyagi keyingi yigirma yillar davomida mahalla raisligida qotgan. Ogʻiriga ham, yengiliga ham hamisha chidab kelgan. Guvoh boʻlganmanki, mahalla ahlining eng zarur muammolarini oʻzi hatto olisda boʻlsa ham, “tepa”ning topshirigʻi bilan yurganiga qaramay, masofadan turib hal qilib bergan.

Aytmoqchimaniki, Musurmon shu mahallada qirgʻ yildan beri yashaydi. Mahalliy aholining barcha qatlamini besh barmogʻiday yaxshi biladi. Kimga ishonish kerak, kim xatarli, kim mulohazali, kim

Ammo... Yana bitta masala bor. Raisning oylik maoshi hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisidan ham past darajada qolyapti. Holbuki, teskarisi boʻlishi kerak emasmi? Toki rais oʻz xodimlariga nisbatan kam maosh olar ekan, doimiy ravishda uning koʻngli oʻksiydi. Bu uning ish samaradorligiga salbiy taʼsir etishi tabiiy. Agar moddiy ragʻbat koʻngildagidek boʻlsa, kishining ruhi koʻtariladi, ishga mehri oshadi, unga bor eʼtiborini qaratadi, boshqa yumushlarga, maqsadlarga qalqimaydi. Kasbiy fidoyiligi bilan yonidagi kishilarga – hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli va yoshlar yetakchisiga, qolaversa, butun mahalla-boʻyga ibarat boʻladi. Zotan, har bir insonni el tashvishi elakdan oʻtkazadi.

aldaydi – barchasi boʻyicha unda yetarli maʼlumot bor. Psixolog boʻlib ketgan, har bir kishiga uning feʼliyu sajjiasiga qarab muomala qiladi. Ammo... oʻz idorasida ishlaydigan yetti mulozim aravani yetti tarfaga tortsa, bir-biri bilan kelishmasa, bir-birining, ayniqsa, raisning aytganini qilmasa, har qanday rais “tepa”dan keladigan topshiriqlar va mahallaning oʻzidagi masalalar “yuk”i tufayli charchaydi. Qattiq charchaydi...

Quvonarlisi, mahalla tizimidagi mazkur muammo endilikda samarali hal etiladigan boʻldi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 23-yanvar kuni oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishida aynan “mahalla yetiligi” ish samaradorligini oshirish masalasiga eʼtibor qaratildi.

Davlatimiz rahbari mavjud imkoniyatlarni ishga solishda hokimlar va “mahalla yetiligi”da metodik bilim hamda amaliy tajriba yetishmayotgani, masʼul vazirlik va idoralar esa ularga yetarli darajada koʻmaklashmayotganini tanqid qiladi.

Bundan buyon hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli va yoshlar yetakchisi mahalla raisi taqdimnomasi asosida tuman hokimi tomonidan lavozimga tayinlanadi va ozod qilinadi.

Abulqosim MAMARASULOVI
 (“Xalq soʻzi”).

Joriy yil 1-yanvardan begʻaraz qon donorligi harakatini rivojlantirish maqsadida har oyda “Birga hayotni saqlaymiz” milliy donorlik aksiyasi oʻtkazilmoqda.

Alisher Navoiy tavalludining 585-yilligiga

Ma'no va hayrat

Hazrat Alisher Navoiyning tafakkur mahsuli bo'lmish benazir, so'nmas asarlar zamiriga singdirilgan irfoniyo-falsafiy hikmat asrlar osha so'z ahli qalbiga quvvat, zavq, shuur bag'ishlab kelmoqda.



Sharq durdonasi va tafakkur ne'mati hisoblanmish hazrat Navoiy mahzani bahramand bo'lish oson ish emas, albatta. Bu kishiga solikning tariqatga kirganidek vazifa va mas'uliyat yuklaydi.

Shoir asarlari mohiyatini uqish, tahlilga tortish, mushohada qilish tolibi ilmdan balog'at, fasohat, kalom ilmidan xabardorlikni talab etadi. Shu bilan birga, u so'zning zohiriy, botiniy, majoziy, kinoyaviy, ko'chma va matn osti yashirin ma'no qirralarini anglashi, his qilishi zarur.

She'riyat – muattar ifor. Uni tushunish, undan zavqlanish uchun oshiqdek hijron o'tida parvonadek kuyish, shamdek erish, ishq dardidan huzurlanish, kabi va sag'ir olamni basirat ko'zi bilan emas, qalb ko'zi bilan idrok, tahammul qilish lozim bo'ladi.

Mir Alisher Navoiyning har bir asari – ummon, so'z latofati ila to'la limmo-lim, darjlangan zar huquqa. Ul tabarruk zotning "Hayrat ul-abror" dostoni hayrat ichra yo'g'rilgan, javohirlar maskani.

Jumladan, dostonning XIV bobida: "So'z ta'rifidakim, bashar vujudi sipehrining kavkabi jahontobi va inson zoti ma'danining javhari serobi durur..." ("So'z ta'rifidakim, odamizod jismi falakning yulduzlari kabi nurafshon, jahontob va inson zoti maxzanining yashnoq gavharidek serobdir...") deb, bob debochasiida nazm silkiga tortilgan mavzuning maqsad va matlabi ta'riflangan. Mazkur bobda so'z Yaratuvchi tomonidan bani odam farzandiga berilgan ne'matlar ichida eng noyob va sharaflil ilohiy mo'jiza, inoyat deb tavsiflanadi.

Darhaqiqat, so'z – lisoniy g'ayb. Isboti shuki, hazrat Alisher Navoiy barcha nazmiy, nasriy asarlarida so'zning maqomi, martabasi xususida bot-bot qalam yuritadi, sharaflaydi, ta'rif beradi.

*So'z guharig'a erur oncha sharaf,
Kim bo'la olmas anga gavhar sadaf.
To'rt sadaf gavharining durji ul,
Yetti falak axtarining burji ul.
Topti qachonkim nazar etti ko'ngul –
Katmi adam gulshani ichra nuhuft,
G'unchalar erdi borisi noshukuft.
Chun bu nasim esti azal tog'idin,
Muncha gul ochildi jahon bog'idin.
Qaysi nasim ulki gulfishon,
Bargi gulu nastaran andin nishon.
Bu ikki yafrog'ni qachon zufunon,
Bir-biriga qo'ysa bo'tur "kofu nun".
Dahr muqayyad bila ozodasi,
Barcha erur "kof" ila "nun" zodasi.*

Ushbu she'riy parchada so'z yagona qolip nazm silkiga tortilib, durri g'altondek

raqsga tushib, poetik husn kasb etgan. So'z gavhariga sharaf bo'lsinki, uning ta'rifida sadaf, gavhar ham kamlik qiladi. Chunki so'z – to'rt sadaf (unsur): tuproq, suv, o't (olov), havoning zarqutisi, sandig'i; yetti falak yulduzi: Quyosh, Oy, Atorud, Zuhra, Mirrix, Mushtariy, Zuhul sayyoralarining burji (ya'ni yulduzlar qanchalik ulkan va yorqin bo'lmasin, ular faqat so'z bilan nomlanadi, ta'riflanadi, ular Alloh izmida). Bog'chai dahr – jahon bog'ining yuz toza guli bor, unga qachon nazar solsang, ko'ngling shuncha zavqqa to'ladi. Lekin u (so'z) mavjudligidan bu toza gullar ilgari (borliq) katmi adam – yo'qlik olamida edi. Shunda azal tog'i (Odam aleyhissalom va Momo Havo uchrashgan jabar-ul-rahma tog'iga ishora)dan ajib bir nasim esdikli, jahon bog'ida shunchalik ko'p gul ochildi va olam gulistonga aylandi, bezaldi. Hayot va insonning yaratilishiga ishora bu. Shunday nasimki, uning qudrati bunchalik ulug' bo'lsa (bu o'rinda gul so'zining bosh harfi "kof", nastaran so'zining bosh harfi "nun"ga tashbeh)! Hunar, ilm sohibi, ya'ni Alloh "kof" va "nun" (arabcha "Kun!" – "Bo'li!") deyishi bilan borliq, mavjudot vujudga keldi.

Masnaviy baytlari badiiy-stilistik ma'no xususiyati jihatdan bir mantiqiy urg'uga bog'lanib, fikriy uyg'unligi, ma'nan butunligi, poetik jozibas, shuningdek, majoziy ma'nosi bilan o'quvchini hayrat olamiga yetaklaydi. Bu kashfu karomat shoirning ma'naviy olami nechog'li yuksak va nozik idrokidan dalolat beradi.

*Subhi azal qildi chu dehqoni sun'
Odomiy hokiyni gulistoni sun'.*

Baytda qo'llangan so'zlarning poetik ma'no xususiyati bir-biriga mukammal uzviy bog'langan, yaxlit umumiy ma'no qobig'iga ega. Subh so'zi tong, har bir voqelikning boshlanishi, ibtidosini bildirsa, subhi azal izofali birikma sifatida azaliy tongni, azaliy ibtido kabi ma'nolarni anglatadi. Dehqon – majoziy ma'noda Yaratuvchi, Alloh. Sun' – ijod qilish, yaratish, yaratqi. Odomi hoki – tuproqdan paydo bo'lgan, yaratilgan; insonning yaratilish mabda'i (manbai)ga ishora; gulistoni sun' – inson yashaydigan manzil, joyi, makoni, Yer sayyorasiga ishora. Yuqoridagi baytda Yaratuvchi azal tongidan, azal subhidan o'z nafasi orqali odomi hoki – Yer mulkini yaratdi hamda odamga ruh atodi, Yerni inson bilan gulistonga aylantirdi degan ma'no, mushohada anglashiladi.

Tolib o'z tafakkuri doirasida va tushunish darajasiga muvofiq, berilgan quvvai hofiza miqdorida matnni tushunadi, his etadi hamda tahlil va so'z yuritadi. Shu bois Alisher Navoiy she'riyatining daqiq nuqtalari asrlar osha qalbmizni zavqqa, ruhimizni shuurga, tafakkurimizni nurga to'ldirib, ilohiy hayratga chorlab kelmoqda.

Is'hoqxon NOSIROV,
Angren davlat universiteti dotsenti.

Yana oqqa belandi zamin...



Osmon qorni eladi...
Ha, zaminni oqqa belab yog'ayotgan qor yurtodoshlarimizga chinakam xushkayfiyat, qish zavqini ulashmoqda. Ko'kdan pag'a-pag'a bo'lib tushayotgan oq parchalar o'zi bilan birga qut-baraka ham olib kelayotgandek go'yo.

Zotan, qor – poklik va to'kinlik ramzi. Xalqimiz "Qor yog'di, don yog'di" deya bejiz aytmaydi-da. Yomg'ir – baraka, qor – rizq, demakdir.

Hozir tabiat ayni qish chillasining hukmida. Odatda, yog'ingarchilikning asosiy qismi shu paytga to'g'ri kelsada, ayrim yillari iliq kelgani ham bor gap. Lekin qish qishligini qilgani ma'qul. Nuroniylarimiz duoga qo'l ochishar ekan, "Qish qishday bo'lsin" deya yuzlariga fотиha tortishadi. Binobarin, bu fasl ob-havosida gap ko'p. U kelgusi yil dehqonchilikning barakasi, chorvaning barorini belgilab

beradi.

Tajribali dehqonlarning fikricha, shudgor qilingan yerlarda qorning singuvchan suvlari nam saqlab, ozuqa vazifasini o'taydi. Chilla suvini, ayniqsa, bog'bonlar o'zgacha qadrlashadi. Payt bo'ldi deguncha, dov-daraxtlar va tokzorlarga chilla suvini oqizish payidan bo'ladi. Negaki, chillada suvga qondirilgan tokzor va mevazorlar yozda suvni bir marta kam talab qiladi, mo'l hosil to'playdi. Shuning uchun xalqimiz chillada yoqqan qorni baraka manbai sifatida xushnudlikda kutib oladi.

Qish chillasi 5-fevralga qadar davom etadi. Shundan so'ng qantar og'ib, tabiat uyg'onishga taraddudlana boshlaydi. Qor yog'sa-da, sovuq zabtiga olmaydi, muzlamalar hosil qilmaydi.

Chorvadorlar ko'pincha qantardan so'ng qish chiqadi, deb hisoblaydilar. Sababi nisbatan iliq kelgan yillarda ayni shu davrda dalalar sabzarang tushga kirib, jonivorlarning og'zi ko'kka tegadi. Xalqimizning "Dalv kirdi – davr kirdi" degan maqolida shunga ishora qilingan, nazarimizda. Ammo hijriy-shamsiy yil taqvimidagi dalv oyining

quyoshli kunlariga unchalik ishonib bo'lmaydi. Chunki chilla chiqsa-da, hali oldinda "to'qson" turibdi. To'qsonning turlanishi, ya'ni qishning bir kuni ham qish ekani esa hech kimga sir emas. Shuni unutmagan kishining murodi, albatta, ushaladi.

Sinoptiklarning prognozlariga qaraganda, yurtimizda yaqin kunlarda o'zgaruvchan ob-havo saqlanib turadi, 29 – 31-yanvar kunlari ham ba'zi joylarda qor yog'ishi mumkin. Fevral oyining boshida yomg'ir ko'rinishidagi yog'ingarchiliklar bo'lishi kutilmoqda.

"Xalq so'zi".

TEXNOLOGIK TAFAKKUR VA IJODIY MAKON LOYIHASI

Qarshi shahrida yosh innovatorlar uchun mo'ljallangan zamonaviy texnologik va ijodiy makon – "American Makerspace Qarshi" loyihasi ish boshladi.

Izlanish

Mazkur markaz fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika (STEAM) yo'nalishlarini yagona muhitda uyg'unlashtirib, yoshlarning texnologik tafakkuri, ko'nikmalari hamda ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, loyiha innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, zamonaviy bilimlarni hamkorlik asosida o'zlashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.



"American Makerspace Qarshi" innovatsion markazining ochilish marosimida AQSHning O'zbekistondagi elchisi Jonatan Henik, O'zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vaziri Sherzod

Shermatov, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'iro'tbov Sharipov hamda viloyat va shahar hokimliklari mas'ullari ishtirok etdi.

Jahongir BOYMURODOV
("Xalq so'zi").

TURIZM yangiliklari

Yaponiyalik sayyohlarning qiziqishi baland

Yaponiyaning Nagoya shahrida O'zbekistonning sayyohlik salohiyatini keng targ'ib qilishga bag'ishlangan uchrashuv bo'lib o'tdi. Tadbir "Club Tourism International Inc." sayyohlik kompaniyasi bilan hamkorlikda, O'zbekistonning Yaponiyadagi turizm elchisi Kaysuke Minami ko'magida tashkil etildi.

Uchrashuvda 2025-yilda mamlakatimizga qariyb 12 million nafar xorijiy sayyoh tashrif buyurgani ta'kidlandi. Ayniqsa, yaponiyalik turistlarning O'zbekistonga bo'lgan qiziqishi tobora baland. Xususan, yurtimizga kelgan Yaponiya fuqarolari soni ilk bor 32 ming nafardan oshib, 2024-yildagiga nisbatan 162 foiz o'sgan.

Tadbir ishtirokchilariga O'zbekistonning boy madaniy-tarixiy merosi, YUNESKO Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan tarixiy obyektlar, hududlarning turistik salohiyati, milliy urf-odatlar, an'anaviy taomlar hamda yaponiyalik mehmonlar uchun qiziqarli bo'lgan mashhur sayyohlik yo'nalishlari haqida batafsil ma'lumot taqdim etildi.

Madaniy meros namunalari ko'rgazmasi

Mamlakatimizning turizm salohiyati Avstriyaning eng yirik xalqaro sayyohlik ko'rgazmalaridan biri – "Ferien Messe Wien 2026" doirasida keng namoyish etildi.

Turizm qo'mitasi 15 – 18-yanvar kunlari Vena shahridagi "VIECON" ko'rgazmalar markazida bo'lib o'tgan ushbu nufuzli tadbirida milliy stend bilan qatnashdi. Ko'rgazma davomida tashrif buyuruvchilarga O'zbekistonning boy

madaniy merosi, an'anaviy xalq hunarmandchiligi, shuningdek, yurtimizning xilma-xil va betakror sayyohlik imkoniyatlarini o'zida mujassam etgan zamonaviy sayohat yo'nalishlari haqida atroflicha ma'lumot berildi.

Izibador yo'nalishlar Yevropada targ'ib etildi

Yevropaning nufuzli "Travel Tomorrow" sayyohlik portalida jurnalist Antonio Buskardinining O'zbekiston turizm salohiyatiga bag'ishlangan maqolasi e'lon qilindi.

Unda mamlakatimizning 2030-yilgacha 20 mln. xorijiy sayyohni jalb etishga qaratilgan strategik maqsadiga alohida urg'u berilgan.

Maqolada so'nggi yillarda O'zbekistonda sayyohlik sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning samarasi batafsil yoritilgan. Xususan, 2025-yilda O'zbekiston dunyo miqyosida

eng tez rivojlanayotgan "TOP – 7" sayyohlik yo'nalishlaridan biri sifatida qayd etilgani ta'kidlanadi.

"Travel Tomorrow" nashridagi mazkur maqola O'zbekistonning turizmi rivojlantirish borasidagi yutuqlarining xalqaro miqyosdagi tasdiqidir.

"Xalq so'zi".

TARIX VA TEXNOLOGIYA UYG'UNLIGI

Bundan ming yillar muqaddam Xorazm zaminida yaratilgan muqaddas "Avesto" kitobida butun borliq to'rt unsur – tuproq, suv, havo va olovdan iborat ekani ta'kidlanadi. Shu bois ajdodlarimiz tabiatni asrashni eng oliy qadriyat sifatida biladi, suv, havo va tuproqni e'zozlab keladi. Bu tasavvurlar xalqning kundalik turmush tarzi, sanitariya va gigiyena qoidalarida ham o'z aksini topgan.

Tajriba

Dunyo xalqlarining ko'pchiligi hali "kanalizatsiya" degan tushuncha haqida o'ylab ham ko'rimgan bir davrda qadim Xivada maishiy chiqindi suvlarni chiqarib yuborishga mo'ljallangan mukammal muhandislik tizimi mavjud bo'lgan. Ichan qal'ada olib borilgan arxeologik qazishmalar chog'ida topilgan bir necha ming yillik sopol quvurlar shundan dalolat beradi. Ushbu quvurlar orqali oqova suvlar shahar hududidan tashqariga chiqarilgan.

Keksa avlod vakillari yaxshi eslaydi: Ichan qal'adagi har bir uy dahlizining bir burchagida mahalliy aholi "to'shshi" deb ataydigan maxsus jihoz bo'lgan. Unda yuz-

qo'l yuvilgan, chiqindi suv esa sopol quvurlar orqali tashqariga olib chiqilgan. Qalin va mustahkam qilib yasalgan "to'shshi"lar hozir ham Ichan qal'adagi madrasalar, tarixiy binolar hovilarida saqlanib qolgan. Yomg'ir va qor suvlari shu tizim orqali oqib ketadi.

Yuksak shaharsozlik va muhandislik tafakkuri shakllangan vohada keyingi yillar davomida oqova suvlarni tozalash masalasi birmuncha e'tibordan chetda qoldi. Qanchalik sanitariya qoidalariga zid bo'lmasin, markazlashgan kanalizatsiya o'rninga uy oldida chiqindi suvlar to'planadigan hovuzchalar qurish amaliyoti keng

tarqaldi. Ayniqsa, tuman markazlari va qishloq joylarida barpo etilayotgan ko'p qavatli uylarni markazlashgan kanalizatsiya tarmog'iga ulash imkoniyati bois oqova suvlar lokal tarmoq orqali maxsus yopiq hovuzlarda to'planib qolmoqda. Bu esa ekologiya uchun jiddiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Ilgari viloyatda me'yorda ishlaydigan markazlashgan kanalizatsiya tizimi faqat Urganch shahridagina mavjud edi. Keyingi yillarda esa bu borada ijobiy siljishlar kuzatilmoqda. Viloyatning boshqa shahar va tumanlarida ham oqova suvlarni tozalash inshootlari hamda tarmoqlar bosqichma-bosqich qurilmoqda.

O'tgan yili Bog'ot tumanidagi Oqtpepa va Abu Rayhon Beruniy nomidagi mahallalarda joylashgan 37 ta ko'p qavatli turarjoy uchun 12 kilometr oqova suv tarmog'i, 2 ta suv haydash inshooti hamda bir kecha-kunduzda 1000 kub metr oqova suvni atrof-muhit uchun zararsiz holga keltirish quvvatiga

ega tozalash majmuasi bunyod etildi, – deydi "Xorazmsuvta'minoti" AJ rahbari Otabek Qodirov. – Xonqa tumanidagi Do'stlik mahallasida joylashgan ko'p qavatli uylar uchun 5,5 kilometr oqova suv tarmoqlari va suv haydash inshooti ishga tushirildi. Umuman, davlat dasturlari doirasida o'tgan yili viloyatda 98 kilometr oqova suv tarmoqlari yotqizilib, 10 ta inshootda qurilish va rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi. Ayni paytda Qo'shko'pir, Shovot va Hazorasp tumanlarida ham shunday loyihalar davom etmoqda.

O'n yildan buyon tuman markazidagi ko'p qavatli uyda oilamiz bilan yashaymiz, – deydi Bog'ot tumanidagi Oqtpepa mahallasi tur'guni Mansur Matyoqubov. – Ilgari kanalizatsiya yo'qligi sabab yillar davomida qiyinchilikka duch keldik. Ayniqsa, yoz faslida chiqindi suvlarning baddo'y hididan bezor bo'lardik. Hozir barcha uylar markazlashgan oqova suv tarmog'iga ulangach, bu muammo batamom bartaraf etildi. Bundan

mahalladoshlarimiz juda mamnun.

Ayni paytda viloyatdagi eng yirik loyiha Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ishtirokida amalga oshirilmoqda. 2025 – 2028-yillarga mo'ljallangan ushbu loyiha umumiy qiymati 150 mln. AQSH dollarini tashkil etadi. Uning doirasida 220 kilometr oqova suv tarmoqlarini qurish, Urganch va Xiva shaharlari hamda Tuproqqal' va Gurlan tumanlari markazida jami 4 ta zamonaviy oqova suv tozalash inshootini barpo etish rejalashtirilgan.

Viloyatda amalga oshirilayotgan yirik loyihalar nafaqat ekologik muammolarni yumshatish, balki tozalangan oqova suvlardan baliqchilik, sholichilik kabi suvni ko'p talab qiladigan tarmoqlarda samarali foydalanish imkonini ham yaratmoqda. Bu esa ajdodlarimizning tabiatga bo'lgan ehtiromining zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'un davom ettirilayotganidan dalolatdir.

Odilbek ODAMBOYEV
("Xalq so'zi").

2026/2027 o'quv yilidan har bir tuman (shahar)da 1 tadan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida sport kurashlariga ixtisoslashtirilgan sport klublari tashkil etiladi.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-1242. 31 379 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrig qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ommaviy rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teritli hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbachi muharrir F. Bozorov.
Musahhah S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 20.35 Topshirildi – 23.00

1 2 3 4 5 6